

Inamov Dilmirza Dadamirzayevich
Namangan davlat universiteti (PhD), dotsent
E-mail: dilmirza1984@gmail.com
Muxammadjonov Alijon Olimjonovich
Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant
Email: alijon19920929@gmail.com

[UO'K 378.14.015.62](#)

**YOSH KADRLARNI KASBIY KOMMUNIKATIV
KO'NIKMALARINI MUSTAHKAMLASHDA INNOVATSION
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN YANADA SAMARALI
FOYDALANISH CHORALARI**

Annotatsiya: *bu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kommunikativ ko'nikmalarini zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli vositalar yordamida kasbga oid bilimlarini va mutaxassislik fanlarini yaxshi darajada o'zlashtirishida yangicha yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalardan yanada samarairoq foydalanish choralari haqida keng fikr yuritilgan. Shuningdek ta'limni raqamli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish masalasida smart ta'lim texnologiyalaridan foydalanish haqida fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, kommunikativ ko'nikma, axborot tizimlari, innovatsion texnologiyalar, smart ta'lim texnologiyalari, innovatsion ta'lim, individual faollik, mobil dasturlar.*

Инамов Дилмирза Дадамирзаевич
Наманганский государственный университет (PhD), доцент
Мухаммаджонов Алижон Олимжонович
Наманганский государственный университет, докторант

**ИННОВАЦИИ В УКРЕПЛЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ
КОММУНИКАЦИОННЫХ НАВЫКОВ МОЛОДЫХ ПЕРСОНАЛОВ
МЕРЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация: *в данной статье рассмотрен новый подход к освоению навыков профессионального общения студентов, обучающихся в высших*

учебных заведениях, профессиональных знаний и профильных предметов с помощью современных информационных технологий и цифровых инструментов, а также меры по более эффективному использованию новых педагогических технологий. Также представлены мнения по использованию умных образовательных технологий в вопросе организации образования на основе цифровых образовательных технологий.

Ключевые слова: цифровые технологии, коммуникативные навыки, информационные системы, инновационные технологии, умные образовательные технологии, инновационное образование, индивидуальная деятельность, мобильные программы.

INNOVATION IN STRENGTHENING THE PROFESSIONAL COMMUNICATION SKILLS OF YOUNG STAFF MEASURES TO USE DIGITAL TECHNOLOGIES MORE EFFICIENTLY

Inamov Dilmirza Dadamirzayevich
Namangan State University (PhD), docent
Mukhammadjonov Alijon Olimjonovich
Namangan State University, PhD student

Abstract: *in this article, a new approach to mastering professional communication skills of students studying in higher education institutions, professional knowledge and specialized subjects with the help of modern information technologies and digital tools, and measures to use new pedagogical technologies more effectively. Also, opinions on the use of smart educational technologies in the issue of organizing education on the basis of digital educational technologies are presented.*

Key words: *digital technologies, communication skills, information systems, innovative technologies, smart educational technologies, innovative education, individual activity, mobile programs*

Kirish

Mamlakatimiz Jahon hamjamiyati bilan bir uzviy bog'liqlikda rivojlanib borar ekan demak ularning ta'lim tizimida va boshqa sohalarida ishlab

chiqarilayotgan va amalda foydalanayotgan dasturiy ta'minotlardan kadrlarini boxabar qilishi zamonaviy bilimlarni ularga o'rgatishi lozim bo'ladi. Bu masala bo'yicha Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev respublikamizda raqamli ta'lim bo'yicha "Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, "Besh tashabbus" loyihasini amalga oshirish doirasida 2024 yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o'qitish markazlarini ochish" haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi [1]. Bu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimiz viloyat va tumanlarida axborot texnologiyalarga asoslangan

- parklar, informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan maktablar tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish va o'quv jarayonida interfaol texnologiyalarni tatbiq etish, bugungi kun yoshlaridan yuqori malakali kadr bo'lib yetishish uchun intellektual salohiyatli, ilm

- fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash talab etadi. Bugungi kunda ilm – fanning tezkor taraqqiy etishida raqamli texnologiyalarining keng joriy etilishi, turli fan yo'nalishlarida bilimlarning jadal yangilab borishi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ravishda muntazam bilim olish vazifasini talab etmoqda.

Shuningdek Muhtaram Prezidentimiz "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi" [2] deb ta'kidlagan fikrlari chuqur ma'noga ega. Shu fikrlardan kelib chiqib jamiyatimizda tahsil olayotgan talabalarni innovatsion ta'lim texnologiyalari, va zamonaviy raqamli texnologiyalardan erkin foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirishimiz lozim bo'ladi. Bunda bizga smart – ta'lim texnologiyalari katta ko'mak berib, ta'lim muassasasidagi kadrlarni raqamli texnologiyalarning so'nggi yutuqlari

orqali o'qitish lozim. Gadgetlar, smart televizor, elektron doskalar, 3D modelga ega bo'lgan amaliy ishlanmalar katta ko'mak beradi.

Adabiyotlar tahlili

Oliy ta'lim tizimida ta'limning sifat bosqichini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish choralari bo'yicha ishlar o'tgan asrning 70-yillardan boshlangan bo'lib bunda ta'limni ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lashda raqamli texnologiyalar ulkan ko'prik vazifasini o'tab kelmoqda.

Oliy ta'lim muassasalariga raqamli texnologiyalarni va ta'limni innovatsion g'oyalar asosida tashkil etish bo'yicha yurtimizning qator yirik pedagogic olimlari ish olib borishgan. Bularga: Begimqulov U.Sh. Rasulova Z.D, Qurbonov G'.G'. bundan tashqari Azizxo'jayeva N.N, Bepalko P.V, Fridman M.L, Maxmutov M.I, kabi olimlar[5] ta'limda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish choralari ishlab chiqqan.

Tadqiqotlar raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayoning mahsuli a'anaviy tarzda ta'lim jarayonining mahsulidan ko'ra samaraliroqligini ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bu birgina ta'lim jarayonining yaxshilanishigina emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlarini sifatli boshqarish, sifatli va tezkor xizmatlar ko'rsatish, raqobatbardosh iqtisodiyot sohalari deganidir.

Hozirda ta'lim jarayonlarining raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining keskin ortib borishi o,,quv yurtlarida kompyuterlashtirishning rivojlanishiga, ularni kompyuter resurslaridan tulaqonli foydalanishga yaqinlashtirib kelmoqda. "Raqamli" atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi[4]. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish har bir fanni chuqur o'qitishga, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga olib keladi. Bundan tashqari o'quvchilar

ayrim farazli qarashlarni talab qiluvchi fanlardan tasavvur qilinishi qiyin boʻlgan ob'ekt, predmetlar to'g'risidagi qarashlarga ega bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini raqamli texnologiyalar orqali yanada samarali tashkil etish muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar asosida yosh kadrlarni kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Tahlillar va natijalar

Ta'limda bosqichlarida yosh kadrlarni kasbiy kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlashda innovatsion raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalanishda quyidagi usullarni qo'llagan holda o'qitish ularning kommunikativ ko'nikmalari raqamli texnologiyalar bilan uzviy rivojlanishini ta'minlaydi:

1. Interfaol darsliklar: Interfaol darsliklar va ta'lim o'yinlari yordamida talabalar o'zlarini sinovdan o'tkazishlari mumkin.
2. Veb-saytlar va onlayn resurslar: ta'lim uchun maxsus veb-saytlar, onlayn video darslar va interfaol ta'lim vositalari orqali o'quv materiallaridan foydalanishi mumkin.
3. Ta'lim platformalari: Ta'lim jarayonini boshqarish, vazifalarni berish va talabalarni baholash uchun maxsus ta'lim platformalaridan foydalanish mumkin.
4. Vebinarlar va onlayn darslar: O'qituvchilar va talabalar uchun onlayn vebinarlar va darslar orqali interfaol ta'limni rivojlantirish mumkin.
5. Ta'limning gibril usullari: an'anaviy ta'lim usullari bilan raqamli texnologiyalarni birlashtirib, gibril ta'lim usullaridan foydalanish mumkin.

Bu usullar raqamli texnologiyalardan foydalanishning faqat bir qismini ifodalaydi. Har bir muassasada, ta'limning maxsus talablari va maqsadlari hisobiga raqamli texnologiyalardan foydalaniladi.

Axborot makonlari esa o'quv maskanlariga quyidagi imkoniyatlarga erishishlarini ta'minlaydi:

- elektron kutubxona ega bo'lishi orqali o'quvchilar uchun yangilangan elektron kitoblar, fanlarga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni taqdim qilib berish;
- ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida sifatli boshqarish;
- o'quvchilar uchun ma'lumotlarni tezkor yetkazib berish;
- ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-psixologik yechimlarni yaratish;[6]
- yangi axborot madaniyatiga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish orqali korxona va tashkilotlar bilan xamkorlik qilish;
- yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan ilmiy-metodik ishlanmalarga ega bo'lish;
- o'zlarining axborot resurslariga ommaviy tashriflarni ta'minlash;
- hujjatlarni uzatish, turli xil shakldagi hisobotlarni yuritish mexanizmlariga ega bo'lish;
- ta'lim oluvchilarining ota-onalariga ular to'g'risidagi axborotlarni yetkazib berish yoki qonun doirasida ochiqligini ta'minlash;
- masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish.

Ta'kidlash mumkinki, ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy etilishi ta'limning sifatini va axborot ta'minotini rivojlanishiga olib keladi[9]. Ta'lim tizimi takomillashuviga bo'lgan talablarning ortib borishi raqamli texnologiyalarning xam yangi imkoniyatlaridan foydalanish ko'rsatkichlarining va ko'nikmalarining ortishiga olib keladi, shuning uchun ham uning hozirgi holatini tanqidiy jihatdan ko'rib chiqish va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini keng targ'ib qilish zarur [7].

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hamda shu tariqa jahon taraqqiyotining global yo'nalishiga kirib borib ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanib axborot resurslarini tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ta'lim tizimini raqamlashtirishda axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasidan ajratmaslik, ularning vujudga kelishi hamda rivojlanishini

belgilovchi ichki va tashqi omillarning mantiqiy ortiqchaligiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash juda ahamiyatlidir. Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, birinchidan, o'qitishning samaradorligini taminlash, ikkinchidan, dars jarayonlariga oid turli ilyutratsiya, video roliklar, ko'rgazmali qurollari tarqatma materiallar tayyorlash, uchinchidan, o'qituvchi-pedagoglarning multimedia maxsulotlari, kompiyuter texnikasi, Internet vositalaridan foydalanish va ularni dars jarayonida qo'llash malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi xulosalarimizdan kelib chiqib quyidagi: birinchidan, o'qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanish malakalarini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz metodik xizmat tizimini yaratish; ikkinchidan, raqamli texnologiyalardan oqilona va maqsadli foydalanish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan darslarga moslashuvchalik qobiliyatini shakllantirish kabi zarur tavsiyalarga amal qilish talab qilinadi.

Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vosilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Bugungi pandemiya sharoiti ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta'lim olish

mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta'limga o'tishning boshqa afzalliklari to'g'risida ham fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinlidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4699-sonli Qarori (Manba: <https://lex.uz/docs/4800657>).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
3. Xashimova D.P., Parpiyeva R.A. zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. "iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.
4. Абдуллаева, О. С. (2022). ПРОЕКТИРОВАНИЕ И ИНФОРМАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КАФЕДРЫ. ББК 22.18 С 56, 266.
5. Abdullayeva, O. S., & Muhammadjonov, A. O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In 2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET) (pp. 588-591). IEEE.
6. Abdullayeva O. S., Ismanova M. D. IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE PROCESS OF PREPARATION FOR TEACHING ACTIVITIES OF THE UNIVERSITY STUDENTS //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 5. – С. 3-5.
7. Abdullaeva O. S. Pedagogical competence of a professional teacher (on the example of 5330200-Informatics and information technology) //Study guide. Publisher: LAP Lambert Academic publishing & Co. KG, Saarbrücken, Germany. – 2018. – С. 105.

8. Abdullaeva O. S. Technology enhance the educational process of professional colleges and academic lyceums (for example, studying the course of informatics and information technology) //Monograph. Publisher: Navruz.-Tashkent. – 2016. – C. 189.
9. Abdullayeva, O.S., Xusayinova, G.A., Muhammadjonov, A.O. Technology of projecting of management system for department activities.